



ISBN978-9910-9645-1-0



9 789910 964510

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
BUXORO AKADEMIK LITSEYI

**„YANGI O'ZBEKISTONDA BARKAMOL
AVLOD TARBIYASI: MUAMMO
VA YECHIMLAR“**

*mavzusida o'tkazilgan ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari to'plami*

BUXORO – 2023-YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
BUXORO AKADEMIK LITSEYI

„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL
AVLOD TARBIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR“

mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to‘plami

“Buxoro viloyat bosmaxonasi” MChJ
nashriyoti–2023 yil

УДК 172.12-053.81(575.1)

КБК 87.77(50')

B 29

ISBN 978-9910-9645-1-0

Barnoyev Sanjar,

„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR“ [Matn] : to‘plam / Buxoro:
“Buxoro viloyat bosmaxonasi” MChJ nashriyoti, 2023. -384 b.

Ushbu to‘plamda Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid amaliy tadbirlar haqida, ularni chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standarti talablariga muvofiq sifatli o‘qitishni tashkil etish; yoshlarni Vatanga, yuksak fuqarolik hamda demokratiya, mustaqillik g‘oyalariga, o‘z xalqining ma‘naviy va tarixiy qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash; o‘quvchilarga qonunchilikni to‘g‘ri tushunishni va ularga rioya qilishni ta‘minlaydigan yuksak madaniyatni, kasbiy ko‘nikmalarni, keng dunyoqarash, sog‘lom fikrlash, alohida sharoitlarda vaziyatga to‘g‘ri baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish; jinoyatchilikka qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, umumta‘lim fanlari va til o‘qitish metodikasi bo‘yicha maqola va tezislar berilgan.

Mas’ul muharrir:

B. B. Namozov f.f.d. (DSc) – BuxDU “Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa” kafedrası mudiri

Taqrizchilar:

D.H.Quvvatova – f.f.d., professor, BuxDU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

D.B.Zaripova – f.f.f.d. (PhD), IIV Buxoro AL “Tillarni o‘rganish” kafedrası mudiri

Ushbu maqolalar to‘plami IIV Buxoro akademik litseyining 2023-yil 13-noyabrdagi 4-sonli Pedagogik kengashida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I SHO'BA

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR AMALIY TADBIRLAR

1. "AYTGIL, DO'STIM, NIMA QILDIK VATAN UCHUN"

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna.....

**2. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA VATANPARVARLIK
TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR AMALIY TADBIRLAR**

Tashbayeva Saodatxon Alisherovna

**3. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA VATANPARVARLIK
TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR AMALIY TADBIRLAR**

Duzelova Dilnoza Maxmutovna

**4. VATANGA SADOQAT XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH – MA'NAVIYATNING
YUKSAK KO'RINISHI**

Davronov Jonibek Mardonkulovich.....

**5. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI AKADEMIK LITSEY
O'QUVCHILARINI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH SOHASIGA IXTISOSLASHGAN
OTMLARGA TAYYORLASHNING INNOVATSION USULLARI**

G'oyibov Jo'rabek Choriyevich.....

II SHO'BA

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA HUQUQSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING AHAMIYATI

**6. HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING O'RNI**

Mamatov Xayrullo Teshayevich

**7. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ
ИСТОРИИ**

Назарова Азима Ботабековна.....

8. TARIX DARSLARIDA "FUTBOL" O'YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich

**9. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HAMDA
FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIK LARI KAFOLATLARI**

Ibodullayev Jaxongir.....

**10. YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISHNING IJTIMOİY-MADANIY
OMILLARI**

Isomiddinov Azizbek Abdumajidovich

**11. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA HUQUQSHUNOSLIK
FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL
USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Xo'jamova Nargiza Najmiddinovna

**12. "YANGI KONSTITUTSIYADA TA'LIM TIZIMI, XUSUSAN HUQUQSHUNOSLIK
FANLARI O'QITISH TIZIMI"**

Alimbetova Raygul Nasratdiynovna

**13. AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA "DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI"
FANINI O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV**

Bahronov Behruz Bo'ri o'g'li

14. TARIX DARSLARIDA INTELLEKTUAL O'YINLI USULLARDAN FOYDALANISH

I SHO‘BA

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR AMALIY TADBIRLAR

“AYTGIL, DO‘STIM, NIMA QILDIK VATAN UCHUN...”

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasi professori, p.f.n.

Annotatsiya. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida vatanparvarlik tuyg‘ularinishakllantirishga doir amaliy tadbirlar o‘tkazishning yo‘l va usullari nihoyatda ko‘p. Ayniqsa, hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘quv soatlarida o‘quvchilarga mustaqillik oliy ne‘mat ekanligi, uni asrash lozimligi, eng buyuk muhabbat Vatanga bo‘lgan muhabbat ekanligini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlikni anglash, madaniy va ma‘naviy merosni qadrlashga undash, vatanparvarlik.

Quyida Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga doir mashg‘ulot o‘tkazish namunasini keltirib o‘tamiz. Tadbir o‘quvchilarni milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usida tarbiyalash, Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrashga o‘rgatish bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, og‘zaki nutqini o‘stirish, ajdodlarimiz va ularning amalga oshirgan ishlaridan faxrlanish tuyg‘usini kuchaytirish, qiyoslab xulosa chiqarish malakasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur mashg‘ulot o‘quvchilarni to‘rt guruhga bo‘lish bilan boshlanadi. Guruhlar uchun o‘qituvchi tomonidan «Ma‘rifat», «Ma‘naviyat», «Fidoyilik», «Vatanparvar» nomlari tavsiya qilinadi. Guruhlar o‘zaro kelishib, nom tanlaydi va tanlagan nomlariga qisqa izoh beradilar. Masalan:

«**Ma‘rifat**» – ma‘rifat insonni kamolga yetkazadi. Jondek aziz Mustaqilligimizga ham ma‘rifatparvar bobolarimiz tufayli erishganmiz. Mustaqillikni mustahkamlashimiz uchun ham bizga ma‘rifat darkor. Shuning uchun biz «Ma‘rifat» nomini tanladik.

«**Ma‘naviyat**» – bu nomni tanlayotganimizda, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning: «Yuksak ma‘naviyat–yengilmas kuch», degan so‘zlari yodimizga tushdi. Demak, xalqi ma‘naviyatli yurt qudratlidir.

«**Fidoyilik**» – bu oliyjanob tuyg‘u. Bugungi kunda biz gashtini surayotgan Mustaqillik ham bobolarimizning ana shu fazilatlari natijasida qo‘lga kiritilgan. Bu ulug‘ ne‘matni asrab avaylash uchun ham fidoyi bo‘lishimiz kerak.

«**Vatanparvar**» – ma‘rifatli, ma‘naviyatli va fidoyi inson, albatta, vatanparvar bo‘ladi. Vatanparvar insonlar tufayli sajdagohdek muqaddas Vatanimizni hamda jondek aziz Mustaqilligimizni asrab avaylashga erishamiz.

Guruhlar joylashib olgach, audiomagnitofon orqali «Alla» qo‘shig‘i eshittiriladi. So‘ngra o‘quvchilarga quyidagi savol beriladi:

– Ushbu mo‘jaz qo‘shiqni tinglab, sizning ko‘nglingizdan qanday hislar kechdi?

O‘quvchilarning biri ko‘z oldida mehribon onasining siymosi gavdalanganini, yana biri uni o‘z bag‘rida ulg‘aytirgan beshigini eslaganini, yana kimdir bu qo‘shiq orqali qalbida ezgulik, muhabbat tuyg‘ulari jo‘sh urganini aytishi mumkin.

O‘qituvchi: Demak, alla orqali bizning qalbimizga muhabbatning ilk ko‘rinishlari singadi. Muhabbatning ilk ko‘rinishlari deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar onaga, otaga, oilaga, Vatanga, do‘stlarga muhabbat uning ilk ko‘rinishlari hisoblanishini aytishadi.

O‘qituvchi: –Aziz o‘quvchilar, siz Vatanga muhabbatni qanday tushunasiz?

O‘quvchilar muhabbatlar ichra eng ulug‘i va buyuklaridan biri Vatanga bo‘lgan muhabbatdir. Bu muhabbat qalbimiz to‘ridan joy egallaganligini aytishadi.

O‘qituvchi: –Vatanni sevish–bu ona-yurtning ravnaqi yo‘lida halol mehnat qilish, o‘zini qahramonliklarga tayyorlab borish demakdir. Vatanni sevish, uning har bir qarich yerini muqaddas bilib qadrlash go‘daklik chog‘imizdanoq ona allasi bilan qon-qonimizga singadi. Mana shu go‘zal Vatanimiz tenglar ichra teng bo‘lib, mustaqil davlat maqomini olganiga ham 34 yildan oshdi.

Mustaqillik – bu so‘zni takrorlaganimizda uning har bir tovushi qalbimiz qo‘ridan, yuragimiz to‘ridan chiqib kelayotgandek go‘yo. Mustaqillik– yurtimizga uzoq davom etgan qishning zulmatidan so‘ng kirib kelgan bahorday go‘yo.

Mustaqillik– Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi bobolarimizning ushalmagan armonlari ro‘yobga chiqqan kun.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida «Mustaqillik» so‘ziga shunday izoh berilgan: «Mustaqillik– mustaqil holat, bog‘liq, qaram bo‘lmagan holat. Davlatning ichki va tashqi ishlarida boshqa davlatga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishi.»

So‘nggi chorak asr davomida yurtimizda ko‘z ko‘rib quvonadigan, dillar quvonchdan yayraydigan voqealar, o‘zgarishlar talaygina. Vatanimiz jahonga yuz tutdi. Xalqimiz buyuk kelajak barpo etishga kirishdi. O‘z bayrog‘imiz, gerbimiz, madhiyamizga ega bo‘ldik. Davlatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda bir nechta nufuzli xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi. Yoshlarga e‘tibor

kuchaydi. Yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlari, o'zlari qiziqqan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berildi. Keksalarga esa alohida ehtirom ko'rsatib kelinmoqda.

Mustaqillikdan so'ng shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgardi. Hatto chekka-chekka qishloqlarda ham ulkan qurilish, obodonchilik va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. E'tiborlisi, xalqimizning turmush tarzi, ma'naviy hayotida keskin burilishlar bo'ldi.

Biz yuqoridagilar haqida o'ylar ekanmiz, qalbimizni, avvalo, shukronalik tuyg'usi bilan to'ldirishimiz kerak. Mana shunday serquyosh osmoniga, zilol suviga, saxovatli va serunum tuprog'iga, viqorli tog'lariga, ochiqko'ngil va mehmondo'st xalqiga, dono va odil Yurtboshisiga ega zaminning farzandlari ekanimizga shukronalar aytishimiz hamda jondek aziz mustaqilligimizning qadriga yetishimiz, asrab-avaylashimiz darkor.

Shundan so'ng «Estafeta tayoqchasi» usulidan foydalanib she'rxonlik o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi Vatan haqida bir bayt she'r aytib qo'lidagi estafeta tayoqchasini bir o'quvchiga beradi. U o'quvchi ham shu mavzudagi she'rdan bir bayt aytib boshqa guruh a'zosiga estafeta tayoqchasini tutadi. Qaysi guruh she'r aytishni to'xtatsa, yutqazgan hisoblanadi.

She'rxonlik bahsini o'qituvchi boshlab beradi:

Bir so'z bor – yuksak tug' iftixorimda,

Tirigimda – nomus, o'lganimda – shan.

Bir so'z bor – jon uning ixtiyorida,

Xudoday ulug' bir so'z bordir – Vatan. (Usmon Azim)

«**Ma'rifat**» guruhi a'zosi:

Onamga o'xshaydi mening Vatanim,

Onamday mehribon, onamday xokisor.

Holbuki, qizi bor yengolmas g'anim,

Holbuki, o'g'li bor chaqmoqdek shunqor.

Chunki dunyo ko'rgan ko'rgisi kelmas,

Qushning inini ham buzgisi kelmas. (Muhammad Yusuf)

«**Ma'naviyat**» guruhi a'zosi:

*Quyosh mehri tushgan ohanrabosan,
Qalbi quyoshlarga mehrigiyosan.
Tuproq'ingdan xushbo'y non isi kelgan,
Vatanim, onamdek sen yagonamsan. (Jahongir Mirzo)*

«**Fidoyilik**» guruhi a'zosi:

*Jahon ichra tole izlab,
Xalq nomidan dadil so'zlab,
Obod yurtning baxtin ko'zlab—
Asragaymiz biz Vatanni,
Fido aylab jon-u tanni. (A.Sobirov)*

«**Vatanparvar**» guruhi a'zosi:

*Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? (Iqbol Mirzo)*

Shu o'rinda mavzu mohiyatini milliy istiqlol davrida yaratilgan ta'sirchan, qalblarga yetib boradigan she'rlar bilan bog'lash o'quvchilar shuuriga mustaqillik g'oyatda ulug' ne'mat ekanligi, uni asrash, avaylash, qadriga yetish shu yurtda yashayotgan har bir kishining muqaddas burchi ekanligi to'g'risidagi tuyg'ularni singdiradi.

Darsning navbatdagi bosqichi «Mustaqillikni asrash—mening tasavvurimda» deb nomlanib, bunda har bir guruhga **VATAN MUSTAQILLIGI** birikmasi yozilgan kattaroq hajmdagi qog'oz beriladi. Qog'ozning orqasida Iqbol Mirzoning «Oydan tushgan emas» she'ri matni keltiriladi:

*Hech kimni baxt o'z-o'zidan quchgan emas,
Qush ham ko'kka mashaqqatsiz uchgan emas.
Oydin tunlar, osoyishta, tiniq tonglar
Oydan tushgan emas, ko'kdan tushgan emas...*

O'quv sharti topshirig'iga ko'ra, guruhning har bir a'zosi she'rning har bir so'zini, jumlasini tushunib, his etib o'qib chiqadi va guruh uchun berilgan qog'ozdagi maxsus bo'sh qoldirilgan o'ringa «Men vatanim mustaqilligini qanday asrayman?» degan savolga bitta jumladan iborat gap yozadi. Javoblar yozib bo'lingach, guruh a'zolari birgalikda Vatan so'ziga bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ta'rif yozishi kerak bo'ladi.

«**Ham chaqqon, ham bilimdon**» deb ataluvchi keyingi usulda har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar beriladi. Guruh a'zolari ham bilimdonliklarini, ham epchilliklarini namoyish qilib, turli she'riy misralar yozilgan qutichadan faqat o'zlariga berilgan topshiriqqa moslarini zudlik bilan ajratib, magnit doskaga joylashtirishlari va ularga qisqacha izoh berishlari kerak bo'ladi.

Topshiriq sharti quyidagicha:

«Ma'rifat» guruhi «Dunyoda bolam deb yashaydi O'zbek!» (M.Yusuf she'ri),
«Ma'naviyat» guruhi «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» (M.Yusuf she'ri),

«Fidoyilik» guruhi «Ulug'imsan, VATANIM !» (M.Yusuf she'ri),

«Vatanparvar» guruhi «Egasi bor yurtning-ertasi bordir» (S.Sayyid she'ri)
asosida tashlangan she'riy matnlarni tez va chaqqon ajratadilar.

Guruh o'quvchilari javoblarini ifodali o'qiydilar va she'riy bandlar mazmunini izohlab, o'qituvchi tomonidan berilgan quyidagi savollarga javob qaytaradilar, topshiriqlarni bajaradilar:

1. O'zbek xalqi dunyoda «bolam», «farzandimning baxt-iqboli» deb yashashini isbotlang.

2. Nega shoir: «*Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!*» deb xitob qiladi?

3. Yurtimiz taqdiri o'zgalar izmida bo'lgan davrlar bo'lganmi?

4. Shoir «*G'ichir-g'ichir tishimdagi So'lig'imsan, Vatanim*» deganda nimani nazarda tutgan?

5. Yurtimizning ertasi kimlarning qo'lida?

6. Yurtning ertangi egalari bo'lgan yoshlarning zimmasida qanday mas'uliyat bor?

7. Qo'lingizdagi she'riy parchalar ichidan sizga eng manzur bo'lgan, ichki tuyg'ularingizga ta'sir ko'rsata olgan o'rinlarni topib o'qing.

Guruhlar savollarga javob qaytaradilar. G'oliblarga rag'bat kartochkalari berib boriladi.

Mashg'ulot so'ngida guruhlarining dars davomida to'plagan ballari jamlanadi va rag'batlantiriladi. Faol ishtirokchilar baholanadi.

Uyga vazifa sifatida «Ma'rifat» guruhiga Muhammad Yusufning «Dunyoda bolam deb yashaydi O'zbek!»; «Ma'naviyat» guruhiga Muhammad Yusufning

«Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!»; «Fidoyilik» guruhiga Muhammad Yusufning «Ulug‘imsan, Vatanim!»; «Vatanparvar» guruhiga Sirojiddin Sayyidning «Egasi bor yurtning—ertasi bordir» she‘rlarini yod olish topshiriladi.

Litsey o‘quvchilari uchun mashg‘ulotni shu tarzda tashkil etish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (OO‘MTV tasdiqlagan darslik).— Buxoro: Durdona, 2021.—445 b.
2. Yuldasheva D., Hamroyeva Sh. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.— Metodik qo‘llanma.— Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.— 124 6.

**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARIDA
VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR
AMALIY TADBIRLAR**

**Tashbayeva Saodatxon Alisherovna,
Ichki ishlar vazirligi Farg‘ona akademik litseyi
tarix fani bosh o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish muammosini o‘z oldiga qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari oldida jamiyat uchun faqat chuqur bilimli, muayyan mutaxassislik malakalarini chuqur egallagan shaxslarigina emas, balki ayni vaqtda davr talablariga javob bera oladigan, yuksak insoniy jamiyatda fuqarolik kasb va mas’uliyatini yaxshi anglagan, hayotda va ish uchun xizmat qila oladigan haqiqiy raqobatbardosh, madaniyatli shaxs – mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini ado etishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, milliy istiqloq g‘oyasi, o‘z-o‘zini takomillashtirish.

*“Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim
va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz
yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham
hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”*

Sh.Mirziyoyev

Barnoyev Sanjar

**„YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL
AVLOD TARBIYASI:**

MUAMMO VA YECHIMLAR“

*mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to‘plami*

МУҲАРРИР: С.ШОДИЕВ

ТЕХНИК МУҲАРРИР: Т.ЛАТИПОВА

МУСАҲҲИҲ: Ж.ИБОДУЛЛАЕВ

Нашриёт лицензияси №8589.

Оригинал макетдан босишга рухсат этилди.

30. 12. 2023 йил. Бичими 60x84. “Times” гарн.

Офсет қоғози. Босма табоғи 24,0. Адади 100.

Буюртма №1060. Баҳоси келишилган нархда.

“Бухоро вилоят босмахонаси” МЧЖда чоп этилди.

Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси, 27-уй.